



Foydalanuvchi yo'riqnomasi

LG Digital Signage

(SIGNAGE MONITORI)

Iltimos, televizoringizdan foydalanishdan avval ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va undan keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ying.

webOS 3.0

MUNDARIJA

FOYDALANUVCHI PARAMETRLARI 3

- Asosiy menyu parametrlari 3
 - Tasvir parametri
 - Ovoz parametrlari
 - Tarmoq parametrlari
 - Umumiy parametrlar

KO'NGIL OCHISH..... 14

- Multimedia xususiyatlaridan foydalanish 14
 - USB/SD xotira qurilmalarini ulash
- Photo & Video (Fotosurat va video) 16
 - Qo'llab-quvvatlanadigan fotosurat va video fayllari
 - Fotosuratlar va videolarni ko'rish
 - Rejalangan holda o'ynatish
 - Eksport
 - O'chirish
- Musiqa 20
 - Qo'llab-quvvatlanadigan musiqa fayllari
 - Musiqa o'ynatish
 - O'chirish
- SuperSign tarkiblari..... 21
- Axborot..... 21
- Local Contents Scheduler (Mahalliy tarkiblar rejalovchisi) 22
 - Rejalangan o'ynatishni o'rnatish
- Screen Share (Ekranni baham ko'rish) .. 23
- Group Manager (Guruh menejeri)..... 24
- Leveler Tool (Tekislash vositasi) 26
- Control Manager (Boshqaruv menejeri). 27
 - Foydalanish usuli
 - Agar tizimga kirish paytida xavfsizlik sertifikatigiz bilan muammoga duch kelsangiz, quyidagi bosqichlarni bajaring.
- Multi-Screen (Multi-Ekran) 32
- Rasm identifikatori parametrlari 33

INFRAQIZIL KODLAR 34

BIR NECHA MAHSULOTNI BOSHQARISH UCHUN 36

- Kabelni ulash 36
- Aloqa parametrlari..... 37
- Ma'lumot uchun Buyruqlar ro'yxati 38
- O'tkazish/Qabul qilish protokoli 41

GPL, LGPL, MPL va ushbu mahsulotda mavjud bo'lgan boshqa ochiq kod litsenziyalari ostida manba kodini olish uchun <http://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring.

Ochiq turdagi kodlarga qo'shimcha ravishda barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatlarning rad qilinishlari va mualliflik huquqlari to'g'risidagi bildirishnomalarni ham yuklab olish mumkin.

LG Electronics opensource@lge.com manziliga elektron pochta so'rovi berilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM-ga ochiq turdagi kodlarni ham yetkazib beradi. Ushbu taklif siz ushbu mahsulotni xarid qilgan sanadan boshlab uch (3) yil muddatga amal qiladi.

! ESLATMA

- Mahsulot funksiyalarining yangilanishi sababli dasturiy ta'minotga tegishli tarkiblar avvaldan ogohlantirmasdan o'zgartirilishi mumkin.
- Foydalanuvchi yo'riqnomasida tavsiflangan ba'zi bir xususiyatlar ayrim modellarda qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- SNMP 2.0 qo'llab-quvvatlanadi.

FOYDALANUVCHI PARAMETRLARI

Asosiy menyu parametrlari

Tasvir parametri

Tasvir rejimini tanlash uchun

SETTINGS /  →  → **Picture (Tasvir)** → **Picture Mode Settings (Tasvir rejimi parametrlari)**
 → **Picture Mode (Tasvir rejimi)**

Video turiga eng yaxshi darajada mos bo'lgan tasvir rejimini tanlang.

- **Vivid (Yorqin):** video tasvirni **contrast (kontrast)**, **brightness (ravshanlik)** va **sharpness (aniqlik)**-ni kuchaytirish orqali chakana savdo muhiti uchun sozlaydi.
- **Standard (Standart):** video tasvirni oddiy muhit uchun sozlaydi.
- **APS:** ekran ravshanligini sozlash orqali quvvat iste'molini kamaytiradi.
- **Cinema (Kino):** video tasvirni kinolarni ko'rish uchun optimallashtiradi.
- **Sports (Sports):** video tasvirni sport o'yinlarini ko'rish uchun optimallashtiradi. To'pni tepish yoki irg'itish singari tezkor harakatlar ham ekranda tiniq namoyish qilinadi.
- **Game (O'yin):** video tasvirni video o'yinlarni o'ynash uchun optimallashtiradi.
- **Photo (Fotosurat):** Fotosuratlarni ko'rish uchun ekranni optimallashtiradi. (Bu xususiyat faqat ayrim modellardagina mavjud.)
- **Expert/Calibration (Ekspert/ Kalibr lash):** ekspert yoki yuqori aniqlikdagi tasvirlarga qiziquvchi istalgan shaxsga tasvirni eng yaxshi tasvir sifati uchun qo'lda sozlashga imkon beradi.

! ESLATMA

- Kirish signaliga bog'liq ravishda **Picture Mode (Tasvir rejimi)** ko'rsatish rejimlarining mavjud diapazoni farq qilishi mumkin.
- **Expert (Ekspert)** - bu ekspertga maxsus tasvirdan foydalanib, tasvir sifatini nozik sozlashga imkon beruvchi opsiyadir. Shuning uchun u oddiy tasvirlar uchun samarali bo'lmisligi mumkin.

Tasvirlarni ko'rsatish rejimini nozik sozlash uchun

SETTINGS /  →  → Picture (Tasvir) → Picture Mode Settings (Tasvir rejimi parametrlari)

→ Customize (Sozlash)

- **Backlight/OLED LIGHT (Fon ravshanligi/OLED YORUG'LIK):**
Ekranning fon ravshanligini boshqarish orqali yorqinlikni sozlaydi. Qiymat 100 ga qanchalik yaqin bo'lsa, ekran shunchalik ravshanroq bo'ladi.
- **Contrast (Kontrast):** Tasvirdagi yorqin va qora soharalar o'rtasidagi farqni sozlaydi. Qiymat 100 ga qanchalik yaqin bo'lsa, farq shunchalik katta bo'ladi.
- **Brightness (Ravshanlik):** Ekranning umumiy ravshanligini sozlaydi. Qiymat 100 ga qanchalik yaqin bo'lsa, ekran shunchalik ravshanroq bo'ladi.
- **Sharpness (Aniqlik):** Ob'yekt qirralarining o'tkirligini sozlaydi. Qiymat 50 ga qanchalik yaqin bo'lsa, qirralar shunchalik tiniqroq va o'tkirroq bo'ladi.
- **H Sharpness (G Aniqlik):** Kontrast qirralari o'tkirligini gorizonta nuqtai nazardan sozlaydi.
- **V Sharpness (V Aniqlik):** Kontrast qirralari o'tkirligini vertikal nuqtai nazardan sozlaydi.
- **Color (Rang):** Ekran tusini yumshatadi yoki chuqurlashtiradi. Qiymat qanchalik 100 ga yaqin bo'lsa, ranglar shunchalik chuqur bo'ladi.
- **Tint (Tus):** Ekranda namoyish qilingan qizil va yashil ranglar o'rtasidagi balansni sozlaydi. Qiymat qanchalik Qizil 50 ga yaqin bo'lsa, qizil rang shunchalik chuqur bo'ladi va qiymat qanchalik Yashil 50 ga yaqin bo'lsa, yashil rang shunchalik chuqur bo'ladi.
- **Color Temperature (Rang harorati):** Iliqlik yoki sovuqlik tuyg'usini uyg'otish uchun ekran tuslarini sozlaydi.
- **Advanced Control/Expert Control (Qo'shimcha boshqaruv/Ekspert boshqaruv):**
Qo'shimcha parametrlarni sozlaydi.
 - **Dynamic Contrast (Dinamik kontrast):** Ekran qismlarining och va to'q qismlari o'rtasidagi farqni tasvir ravshanligiga ko'ra optimallashtiradi.
 - **Super Resolution (Super tasvir aniqligi):** Tasvirning chaplangan yoki tanib olish qiyin bo'lgan qismlarini o'tkirlashtiradi.
 - **Color Gamut (Rang diapazoni):** Namoyish qilish uchun ranglar diapazonini tanlaydi.
 - **Dynamic Color (Dinamik rang):** Yanada yorqin va jonli tasvir olish uchun tasvir tusi va to'yinganligini sozlaydi.
 - **Edge Enhancer (Chetlarni kuchaytirish):** Tasvir uchun o'tkirroq va tiniqroq qirralar bilan ta'minlaydi.
 - **Color Filter (Rang filtri):** RGB fazosining maxsus rang sohasini filtrlash orqali rang va tusni aniq sozlaydi.
 - **Preferred Color (Afzal ko'rilgan rang):** Teri, o'tlar va osmonni afzal ko'rgan ranglaringizga sozlaydi.
 - **Gamma (Gamma):** Tasvirning o'rtacha ravshanligini sozlaydi.
 - **White Balance (Oq balans):** Tasvirning umumiy tusini afzalligingizga ko'ra sozlaydi. Expert mode (Ekspert rejimi)da siz Method/Pattern (Usul/Namuna) parametrlaridan foydalanib tasvirni nozik sozlashingiz mumkin.
 - **Color Management System (Ranglarni boshqarish tizimi):** Ekspertlar test namunasidan foydalangan holda ranglarni sozlaganlarida ranglarni boshqarish tizimidan foydalanadilar. Ranglarni boshqarish tizimi boshqa ranglarga ta'sir ko'rsatmagan holda 6 ta turli rang sohalari (Qizil/Sariq/Ko'k/Havorang/Qirmizi/Yashil) orasidan tanlash orqali sozlashlarni amalga oshirishga imkon beradi. Hattoki sozlangandan keyin ham, siz oddiy tasvirda tuslarning o'zgarishini ko'rmasligingiz mumkin.

- **Picture Options (Rasm opsiyalari):** Rasm opsiyalari sozlaydi.
 - **Noise Reduction (Shovqinni pasaytirish) :** Tiniq tasvir olish uchun tartibsiz ravishda hosil qilingan mayda nuqtalarni yo'qotadi.
 - **MPEG Noise Reduction (MPEG Shovqinni pasaytirish) :** Bu parametr raqamli video signallarini yaratishda hosil qilingan shovqinlarni kamaytiradi.
 - **Black Level (Qora darajasi) :** Tasvir ravshanligi va kontrastini to'g'rilash uchun tasvirning qora darajasini sozlaydi.
(Kirish signaliga binoan tavsiya etiladigan sozlamalar: RGB 0–255: Yuqori, RGB 16–235: Past, YCbCr: Past)
 - **Real Cinema (Haqiqiy kinoteatr) :** Kinodagidek ko'rinishi uchun video tasvirni optimallashtiradi.
 - **Motion Eye Care (Ko'z himoyasi) :** Namoyish qilingan tasvirga asoslangan holda ravshanlik darajalarini sozlash va chaplanishni kamaytirish orqali ko'zlarning charchashini kamaytiradi.
 - **LED mahalliy qoraytirish:** Kontrastni maksimalashtirish orqali tasvirning ravshan qismlarini yanada ravshanlashtiradi, qora qismlarini qoraytiradi. Bu xususiyatni o'chirib qo'yish ko'proq quvvat iste'mol qilinishiga olib kelishi mumkin. (Faqat ma'lum modellarga qo'llaniladi.)
 - **TruMotion (HaqHarakat):** Harakatlanuvchi tasvirlar bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tasvirning tebranishi va qoldiq tasvirni kamaytiradi.

! ESLATMA

- Siz qo'shimcha parametrlarni faqat **User (Foydalanuvchi)** rejimida sozlashingiz mumkin.
- Kirish signali yoki tanlangan tasvir rejimiga bog'liq ravishda mavjud opsiyalar farq qilishi mumkin.

Nisbat ko'effitsiyentini o'rnatish uchun

(Ayrim xususiyatlar ma'lum modellarda qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.)

SETTINGS /  →  → **Picture (Tasvir)** → **Aspect Ratio (Nisbat ko'effitsiyenti)**

Tasvirni uning optimal o'lchamida ko'rish uchun nisbat ko'effitsiyentini o'zgartiradi.

- **16:9:** Tasvirni 16:9 ga teng nisbat ko'effitsiyentida namoyish qiladi.
- **Just Scan (Aniq o'lchami):** Tasvirni qirralarini qirmagan holda o'z o'lchamida namoyish qiladi.
Asli HDMI (720p yoki balandroq) rejimida mavjud. (58:9 modellarda bu opsiyani kirish signaliga bog'liq bo'lmagan holda tanlash mumkin.)
- **Original (Asl):** kiruvchi video signalga bog'liq ravishda nisbat ko'effitsiyentini 4:3 yoki 16:9 ga avtomatik ravishda o'zgartiradi.
- **4:3:** Tasvirni 4:3 ga teng nisbat ko'effitsiyentida namoyish qiladi.
- **58:9:** Ekran 58:9 ga teng tomonlar nisbati bilan namoyish qiladi.
- **Vertical Zoom (Vertikal kattalashtirish):** Namoyish qilingan tasvir balandligi va vertikal holatini sozlaydi.
- **All-Direction Zoom (Barcha yo'nalishlarda kattalashtirish):** Namoyish qilingan tasvirning gorizonta/vertikal/diagonal o'lchamlari va gorizonta/vertikal holatini sozlaydi.

! EHTIYOTBO'LING

- Agar harakatlanmaydigan tasvir ekranda uzoq vaqt namoyish qilinsa, u ekranga qotib qoladi va ekrandagi doimiy fizik nuqsonga aylanadi. Bu ekranning "kuyishi" yoki "qoldiq tasvir"dir, va u kafolat bilan qamrab olinmaydi.
- Agar nisbat ko'effitsiyenti uzoq vaqt **4:3** ga o'rnatilsa, ekranning hoshiya sohasida qoldiq tasvir hosil bo'lishi mumkin.
- Modelga bog'liq ravishda opsiyalar farq qilishi mumkin.
- Kirish signaliga bog'liq ravishda nisbat ko'effitsiyenti farq qilishi mumkin.
- Siz **Vertical Zoom (Vertikal kattalashtirish)** yoki **All-Direction Zoom (Barcha yo'nalishlarda kattalashtirish)**-ni sozlaganingizda ekran ba'zi bir kirish signallari uchun mitillashi mumkin.

Energy Saving (Energiyani tejash) funktsiyasidan foydalanish uchun

SETTINGS /  →  → Picture (Tasvir) → Energy Saving (Energiyani tejash)

Ekran ravshanligini sozlash orqali quvvat iste'molini kamaytiradi.

- **Auto (Avto):** Atrofdagi yorug'likka bog'liq ravishda monitor ravshanligini sozlaydi. (Bu xususiyat faqat ayrim modellardagina mavjud.)
- **Off (O'chirish):** Energy Saving (Energiyani tejash) rejimini o'chiradi.
- **Minimum/Medium/Maximum (Minimum/O'rtacha/Maksimum):** Monitoringiz uchun ko'rsatilgan Energy Saving (Energiyani tejash) darajasiga ko'ra Energy Saving (Energiyani tejash) funktsiyasidan foydalanadi.
- **Screen Off (Ekranni o'chirish):** Ekranni o'chiradi. Siz faqat audioni eshitasiz. Quvvat tugmasidan boshqa masofadan boshqarish pultidagi istalgan tugmani bosish orqali ekranni qayta yoqishingiz mumkin.

Smart Energy Saving (Energiyani aqlli tejash) funktsiyasidan foydalanish uchun

(Faqat ma'lum modellargagina qo'llaniladi.)

SETTINGS /  →  → Picture (Tasvir) → Smart Energy Saving (Energiyani aqlli tejash)

Monitor ravshanligi quvvatlarni tejash uchun tasvir ravshanligiga ko'ra avtomatik ravishda sozlanadi.

- **Off (O'chirish):** Smart Energy Saving (Energiyani aqlli tejash) funktsiyasini o'chiradi.
- **On (Yoqish):** Smart Energy Saving (Energiyani aqlli tejash) funktsiyasini yoqadi.

OLED displeyni sozlash

[Faqat OLED modellar uchun]

SETTINGS /  →  → Picture (Tasvir) → OLED Panel Settings (OLED panel parametrlari)

- **Clear Panel Noise (Panel shovqinini yo'q qilish):** Ekran uzoq vaqt yoqilgan holda bo'lganda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf qiladi.

SCREEN(RGB-PC) (EKRAN(RGB-PC)) funktsiyasidan foydalanish

(Faqat ma'lum modellargagina qo'llaniladi.)

SETTINGS /  →  → Picture (Tasvir) → SCREEN(RGB-PC) (EKRAN(RGB-PC))

ShK displeyining RGB rejimidagi parametrlarini sozlaydi.

- **Set Automatically (Avtomatik o'rnatish):** Ekran holati, soat va fazani avtomatik sozlashga o'rnatadi. Konfiguratsiya qilish jarayoni borayotgan vaqtda namoyish qilinayotgan tasvir bir necha daqiqa turg'un bo'lmashligi mumkin.
- **Resolution (Tasvir aniqligi):** Tegishli tasvir aniqligini tanlaydi.
- **Position/Size/Phase (Joylashuvi/Hajmi/Faza):** Tasvir aniq bo'lmaganida, ayniqsa belgilar tebranib turganida avtomatik sozlashdan keyin parametrlarni sozlaydi.
- **Reset (Qayta tiklash):** Parametrlarni boshlang'ich qiymatlariga qayta tiklaydi.

Ovoz parametrlari

- Faqat ma'lum modellargagina qo'llaniladi.

Sound Mode (Ovoz rejimi)ni tanlash uchun

SETTINGS /  →  → Sound (Ovoz) → Sound Mode (Ovoz rejimi)

Hozirda ko'rilayotgan video turiga bog'liq ravishda eng yaxshi ovoz sifati avtomatik ravishda tanlanadi.

- **Standard (Standart):** Bu ovoz rejimi barcha turdagi tarkiblar uchun yaxshi ishlaydi.
- **Cinema (Kino):** Ovozni kinolarni ko'rish uchun optimallashtiradi.
- **Clear Voice III (Tiniq ovoz III):** Ovozlarni yanada tiniqroq eshita olishlari uchun ovozni yaxshilaydi.
- **Sports (Sport):** Ovozni sport o'yinlarini ko'rish uchun optimallashtiradi.
- **Music (Musiqqa):** Ovozni musiqa tinglash uchun optimallashtiradi.
- **Game (O'yin):** Ovozni videoo'yinlarni o'ynash uchun optimallashtiradi.

Sound Effects (Ovoz effektlari) funksiyasidan foydalanish uchun

SETTINGS /  →  → Sound (Ovoz) → Sound Mode Settings (Ovoz rejimi parametrlari)

- **Equalizer (Ekvalayzer):** Ekvalayzerdan foydalanib ovozni qo'lda sozlang.
- **Balance (Balans):** Chap dinamik va o'ng dinamik uchun chiqish ovoz balandligini sozlang.
- **Reset (Qayta o'rnatish):** Ovoz parametrlarini qaytadan o'rnatish.

Ovoz chiqarish qurilmasini tanlash

SETTINGS /  →  → Sound (Ovoz) → Sound Out (Ovoz chiqishi)

- **Signage Speaker (Signage dinamigi):**

Signage monitorining ichki qurilgan dinamiklari orqali ovoz chiqarishingiz mumkin. Bu xususiyat faqat ichki qurilgan Signage dinamiklarga ega modellar uchun mavjud.

- **LG Sound Sync / Bluetooth (LG ovozni sinxronlashtirish / Bluetooth):**

Signage monitoridan chiqadigan boy tovushdan qulay tarzda rohatlanish uchun Bluetooth audio qurilmalari yoki Bluetooth garnituralarini simsiz tarzda ulashingiz mumkin.

ESLATMA



- U yoqilganda yaqinda ulangan qurilmalardan ayrimlari Signage monitoriga avtomatik ravishda qaytadan ulanishga harakat qilishlari mumkin.
- LG TV yoki LG ovozni sinxronlashtirish rejimiga ulashdan oldin LG ovozni sinxronlashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan LG audio qurilmalarini o'rnatish tavsiya qilinadi.
- Bu xususiyat faqat ayrim modellardagina mavjud.
- Ulangan yoki ulanishi mumkin bo'lgan qurilmalarni ko'rish uchun **Device Selection (Qurilmani tanlash)**-ni bosing va boshqa qurilmalarni ulang.
- Ulangan qurilmaning ovoz balandligini sozlash uchun Signage masofadan boshqarish pultidan foydalanishingiz mumkin.
- Agar audio qurilmani ulab bo'lmasa, uning yoqilgan holatda ekanligi va ulash mumkin ekanligini tekshiring.
- Bluetooth qurilmasining turiga bog'liq ravishda qurilma to'g'ri ulanmasligi yoki sinxronlashtirilmagan video va audio kabi nosozliklar yuzaga kelishi mumkin.
- Tovush titrashi yoki tovush sifati pasayishi mumkin, agar:
 - Bluetooth qurilmasi Signage monitoridan juda uzoq bo'lsa.
 - Bluetooth qurilmasi bilan Signage monitori o'rtasida biror-bir to'siq mavjud bo'lsa.
 - Qurilmadan mikroto'lqinli pech yoki simsiz LAN routeri kabi boshqa radio chastotali qurilma yaqinida foydalanilsa.

Volume Mode (Ovoz rejimi)ni tanlash uchun

SETTINGS /  →  → Sound (Ovoz) → Volume Mode (Ovoz rejimi) → Volume Increase Rate (Ovozni ko'tarish tezligi)

Low/Medium/High (Quyil/O'rtacha/Yuqori) dan istalganini tanlash orqali siz ovoz balandligi diapazonini o'rnatishingiz mumkin.

Audioni video bilan sinxronlashtirish uchun

SETTINGS /  →  → Sound (Ovoz) → AV Sync Adjustment (AV sinx.) Sozlash

- **Signage Speaker (Signage dinamigi):** Video bilan tashqi dinamiklar, jumladan raqamli audio chiqishi portiga ulangan dinamiklar, LG audio jihozi yoki garnituralardan chiqayotgan audioni sinxronlashtirishni sozlaydi. Standart qiymatda qiymat "-" ga qanchalik yaqin bo'lsa, ovoz chiqarilishi shunchalik tez va qiymat "+" ga qanchalik yaqin bo'lsa, ovoz chiqarilishi shunchalik sekin bo'ladi.
- **Bypass (Baypas):** Kechikishsiz tashqi qurilmalardan chiquvchi audio. Monitorga kiritilgan videoni qayta ishlash vaqti tufayli audio videoga qaraganda ertaroq chiqarilishi mumkin.

Tarmoq parametrlari

Signage monitori nomini o'rnatish

SETTINGS / ⚙️ →  → Network (Tarmoq) → Signage Name (Signage nomi)

Siz ekrandagi klaviaturadan foydalangan holda foydalaniladigan Signage monitor uchun nomni o'rnatishingiz mumkin.

Simli tarmoqni o'rnatish

SETTINGS / ⚙️ →  → Network (Tarmoq) → Wired Connection (Ethernet) (Simli (Ethernet))

- **Connecting to a wired network (Simli tarmoqqa ulash):**

LAN porti orqali monitoringizni mahalliy tarmoqqa (LAN) ulang va tarmoq parametrlarini sozlang. Faqat simli tarmoq ulanishlari qo'llab-quvvatlanadi. Fizik ulanishni amalga oshirgandan keyin kam sondagi uy tarmoqlari display tarmog'i parametrlarining sozlanishini talab qilishi mumkin. Ko'pchilik tarmoqlar uchun display hech qanday sozlashsiz tarmoqni ulashni avtomatik bajaradi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun internet provayderingizga murojaat qiling yoki routingingiz qo'llanmasiga qarang.

Simsiz tarmoqni o'rnatish

(Faqat ma'lum modellargagina qo'llaniladi.)

SETTINGS / ⚙️ →  → Network (Tarmoq) → Wi-Fi Connection (Wi-Fi)

Agar siz monitor simsiz tarmoqqa o'rnatgan bo'lsangiz, simsiz Internet tarmoqlarini qidirishingiz va ularga ulanishingiz mumkin.

- **Add a Hidden Wireless Network (Yashirin simsiz tarmoq qo'shish):**

Agar siz tarmoq nomini to'g'ridan-to'g'ri kiritsangiz, simsiz tarmoqni qo'shishingiz mumkin.

- **WPS PBS connection (WPS PBS ulanishi):**

Marshrutizatorga osonlik bilan ulanish uchun PBC-ni qo'llab-quvvatlaydigan simsiz marshrutizatoridagi tugmani bosing.

- **WPS PIN Code connection (WPS PIN kod ulanishi):**

Marshrutizatorga oddiy usulda ulanish uchun PIN kodni qo'llab-quvvatlaydigan simsiz marshrutizator veb-sahifasida PIN raqamini kiriting.

- **Wi-Fi advanced settings (Wi-Fi kengaytirilgan parametrlari):**

Simsiz tarmoqqa ulanish uchun tarmoq ma'lumotlarini qo'lda kiriting. Foydalanish mumkin bo'lgan simsiz tarmoq paydo bo'lmagan hollarda **Wi-Fi advanced settings (Wi-Fi kengaytirilgan parametrlari)**. Siz tarmoq qo'shish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

SoftAP-ni o'rnatish

(Faqat ma'lum modellargagina qo'llaniladi.)

SETTINGS / ⚙️ → Advanced (Kengaytirilgan) → Network (Tarmoq) → SoftAP

Agar SoftAP-ni o'rnatangiz, simsiz router orqali Wi-Fi ulanishi orqali ko'pgina qurilmalarni ulashingiz va simsiz internetdan foydalanishingiz mumkin.

- SIGNAGE-dan foydalanish uchun internet ulanishiga ega bo'lishingiz kerak.
- SoftAP xususiyati va Screen Share (Ekranni baham ko'rish) xususiyatidan bir vaqtda foydalana olmaysiz.
- Wi-Fi adapterlarini qo'llab-quvvatlovchi modellarda SoftAP menyusi faqat Wi-Fi adapteri mahsulotga ulangan hollardagina yoqiladi.
- SoftAP ulanishi to'g'risidagi ma'lumotlar
 - SSID: Simsiz internet ulanishini hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos identifikator
 - Xavfsizlik kaliti: Kerakli simsiz tarmoqqa ulanish uchun siz kiritadigan xavfsizlik kaliti
 - Ulangan qurilmalar soni: Hozirda Wi-Fi ulanishi orqali Signage qurilmasiga ulangan qurilmalar sonini ko'rsatadi. 10 tagacha bo'lgan qurilmalar qo'llab-quvvatlanadi.

Tarmoqni o'rnatish uchun maslahatlar

- Ushbu displey bilan standart LAN kabelidan (RJ45 ulovchisiga ega bo'lgan Cat5 yoki balandrog'i) foydalaning.
- O'rnatish vaqtidagi ko'pgina tarmoq ulanishi muammolarini router yoki modemni qayta o'rnatish orqali hal qilish mumkin. Displeyni uy tarmog'iga ulagandan keyin tezda o'chiring va/yoki uy tarmog'i kabeli yoki modem kabelini uzing, keyin displeyni yoqing va/yoki quvvat kabelini qaytadan ulang.
- Internet provayderiga (ISP) bog'liq ravishda internet xizmatidan foydalanishi mumkin bo'lgan qurilmalar soni tegishli xizmat ko'rsatish shartlari bilan cheklab qo'yilishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun internet provayderingizga murojaat qiling.
- Aloqa xatolari/Internet ulanishingiz yoki boshqa ulangan qurilma bilan bog'liq bo'lgan noto'g'ri ishlashlar tufayli displey va/yoki Internet ulanishi xususiyatining har qanday noto'g'ri ishlashi uchun LG javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- Internet ulanishingiz doirasidagi muammolar uchun LG javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- Agar tarmoq ulanishi foydalanilayotgan tarkib talablariga javob bermagan hollarda kutilmagan natijalarga ega bo'lishingiz mumkin.
- Internet ulanishingizni ta'minlab beruvchi Internet provayderingiz (ISP) tomonidan o'rnatilgan ma'lum cheklanishlar tufayli ayrim internet ulanishi operatsiyalaridan foydalanib bo'lmasligi mumkin.
- Internet provayder tomonidan olinadigan har qanday to'lovlar, jumladan ulanish uchun to'lovlarni to'lash uchun faqat o'zingiz javobgardirsiz.

! ESLATMA

- Agar siz internetga to'g'ridan-to'g'ri displeyda kirmoqchi bo'lsangiz, internet ulanishi doimo yoqilgan bo'lishi kerak.
- Agar internetga kira olmasangiz, tarmoq'ingizdagi kompyuterdan tarmoq holatlarini tekshiring.
- Siz Network Setting (Tarmoq parametrlari)-dan foydalanganingizda LAN kabelini yoki routerdagi DHCP-ni yoqilganligini tekshiring.
- Agar siz tarmoq parametrlarini o'rnatishni tugallamasangiz, tarmoq to'g'ri ishlamasligi mumkin.

! EHTIYOTBO'LING

- Modulli telefon kabelini LAN portiga ulamang.
- Turli ulash usullari mavjud bo'lganligi uchun telekommunikatsion operatoringiz yoki internet provayderingiz ko'rsatmalariga amal qiling.
- Displey fizik tarmoqqa ulanmaguncha tarmoq parametrlari menyusidan foydalanib bo'lmaydi.

Simsiz tarmoqni o'rnatish uchun maslahatlar

- Simsiz tarmoqlarning ishlashiga 2,4 GGz chastotada ishlovchi boshqa qurilmalar (simsiz telefonlar, Bluetooth qurilmalari yoki mikroto'lqinli pechlar) xalaqitlar hosil qilishlari mumkin. Boshqa Wi-Fi qurilmalari kabi 5 GGz chastotada ishlovchi boshqa qurilmalar ham xalaqitlar hosil qilishlari mumkin.
- Atrofdagi simsiz muhit simsiz tarmoqning sekin ishlashiga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar siz butun mahalliy uy tarmog'ini o'chirmasangiz, ayrim qurilmalarda tarmoq trafigi sodir bo'lishi mumkin.
- Kirish nuqtasi uchun simsiz ulanishni qo'llab-quvvatlovchi kirish nuqtasi qurilmasi talab qilinadi va ushbu qurilmada simsiz ulanish xususiyati yoqilgan bo'lishi kerak. Kirish nuqtangizda simsiz ulanishdan foydalanish mumkinligi to'g'risida bilish uchun xizmat ko'rsatuvchi provayderga murojaat qiling..
- Kirish nuqtasi ulanishi uchun SSID va xavfsizlik sozlanmalarini tekshiring. SSID va kirish nuqtasining xavfsizlik sozlanmalari to'g'risida ma'lumotlar olish uchun tegishli hujjatlar qarang.
- Tarmoq qurilmalaridagi (simli/simsiz liniya marshrutizatori, xab) noto'g'ri sozlamalar televizorning sekin ishlashi yoki to'g'ri ishlamasligiga sabab bo'lishi mumkin. Qurilmalarni tegishli qo'llanmaga muvofiq to'g'ri ulang va tarmoqni o'rnatig.
- Kirish nuqtasi ishlab chiqaruvchisiga bog'liq ravishda ulash usuli farq qilishi mumkin.

Umumiy parametrlar

Tilni sozlash uchun

SETTINGS /  →  → General (Umumiy) → Menu Language (Menyu tili)

Ekranida namoyish qilingan menyuda tillardan birini tanlang.

- **Menu Language (Menyu tili):** Signage uchun tilni o'rnatadi.

Klaviatura tilini o'rnatish

SETTINGS /  →  → General (Umumiy) → Keyboard Languages (Klaviatura tillari)

Klaviaturada ko'rsatish uchun o'zingiz xohlagan tilni tanlang.

- **Keyboard Languages (Klaviatura tillari):** Klaviatura tilini o'rnatadi.

Vaqt/sanani o'rnatish uchun

SETTINGS /  →  → General (Umumiy) → Time & Date (Vaqt va sana)

Siz vaqtni tekshirishingiz yoki o'zgartirishingiz mumkin.

- **Set Automatically (Avtomatik o'rnatish):** Time (Vaqt) va Date (Sana)-ni o'rnatishingiz mumkin.
- **Daylight Saving Time (Yozgi vaqtga o'tish):** Daylight Saving Time (Yozgi vaqtga o'tish) uchun Start Time (Boshlash vaqti) va End Time (Tugash vaqti)-ni o'rnatishingiz mumkin. DST boshlash/tugatish faqat ularni bir-birlaridan bir kundan ortiq farq bilan o'rnatilgan hollardagina ishlaydi.
- **Time zone (Vaqt mintaqasi):** Continent (Qit'a), Country/Territory (Mamlakat/Hudud) va City (Shahar) uchun parametrlarni o'zgartirishingiz mumkin.

Monitorni avtomatik yoqish yoki o'chirish uchun

SETTINGS /  →  → General (Umumiy) → Timers (Taymer)

Siz monitoringiz uchun On/Off Timer (Yoqish/O'chirish taymeri)ni o'rnatishingiz mumkin.

- **On Timer (Yoqish taymeri):** Siz monitoringiz yonadigan vaqtni o'rnatishingiz mumkin.
- **Off Timer (O'chirish taymeri):** Siz monitoringiz o'chadigan vaqtni o'rnatishingiz mumkin.
- **No Signal Power Off (15 minutes) (Signal bo'lmaganda o'chirish (15 daqiqa)):** Kiritish signali bo'lmaganda, monitor 15 daqiqadan keyin avtomatik ravishda o'chadi. Agar uni avtomatik ravishda o'chishini istamasangiz, No Signal Power Off (Signal yo'q O'chirilsin)ni **Off (O'chirish)**ga o'rnatang.
- **Auto Power Off (Quvvatni avtomatik o'chirish):** Tugma kiritishi bo'lmaganda, monitor avtomatik ravishda o'chadi.

! ESLATMA

- O'chirish vaqti/Yoqish vaqti yettitagacha rejalarni saqlashi mumkin; reja ro'yxatidagi avvaldan o'rnatilgan vaqtda monitor yonadi yoki o'chadi. Agar reja ro'yxatida bir nechta vaqt o'rnatilgan bo'lsa, bu funktsiya joriy vaqtga eng yaqin bo'lgan vaqtda ishlaydi.
- Yonish yoki o'chirish vaqti o'rnatilgandan keyin bu funktsiyalar har kuni avvaldan o'rnatilgan vaqtda ishlaydi.
- Rejalangan o'chirish funktsiyasi faqat qurilma vaqti to'g'ri o'rnatilgandagina to'g'ri ishlaydi.
- Rejalangan yoqish va o'chirish vaqtlari bir xil bo'lganda qurilma yoqilgan hollar uchun o'chirish vaqtlari va qurilma o'chiq bo'lgan hollarda yoqish vaqtlari ustunroq bo'ladi.

ID-ni o'rnatishni sozlash

SETTINGS /  →  → **General (Umumiy)** → **Set ID (ID-ni o'rnatish)**

- **Set ID (ID-ni o'rnatish)(1 dan 1000 gacha):** Namoyish qilish uchun bir nechta mahsulot ulanganda har bir mahsulotga o'ziga xos ID raqamini avtomatik ravishda tayinlaydi. 1 dan 1000 gacha bo'lgan raqamlarni bering va opsiyadan chiqing. O'zingiz har bir mahsulotga bergan ID-ni o'rnatishdan foydalangan holda har bir mahsulotni boshqarishingiz mumkin.
- **Auto Set ID (ID-ni avtomatik ravishda o'rnatish):** Namoyish qilish uchun bir nechta mahsulot ulanganda har bir qurilmaga o'ziga xos ID raqamini avtomatik ravishda tayinlaydi.
- **Reset Set ID (ID-ni o'rnatishni qayta o'rnatish):** Mahsulotning ID-ni o'rnatishini 1 ga qaytadan o'rnatadi.

! ESLATMA

- Avtomatik ID parametrlaridan foydalanganda birinchi qurilmaga faqatgina IQ signalini o'tkazish talab qilinadi. IQ signali boshqa qurilmalarga o'tkazilganda noto'g'ri ishlashlar yuzaga kelishi mumkin.

Plitka rejimidan foydalanish

SETTINGS /  →  → **General (Umumiy)** → **Tile Mode (Plitka rejimi)**

Siz birlashtirish ekranini har bir displeyni sozlaganingiz kabi sozlashingiz mumkin.

- **Row (Qator) (1 dan 15 gacha):** Qatorlar sonini o'rnatadi.
- **Column (Ustun) (1 dan 15 gacha):** Plitkalar ustunlari sonini o'rnatadi.
- **Tile ID (Plitka ID) (1 dan 225 gacha):** Plitka ID-ni o'rnatadi. Siz tanlagan ID ekranda namoyish qilinadi.
- **Natural (Tabiiy):** Tabiiyroq namoyish qilish uchun ekranlar orqasidagi masofani hisobga olgan holda tasvir qisman tushirib qoldiriladi.
- **Natural Size (Tabiiy o'lcham):** Tabiiy rejim uchun ekranlar o'rtasidagi masofani o'rnatadi.
- **Reset (Qayta o'rnatish):** Plitka parametrlarini 2 x 2 ga qayta o'rnatadi.

! ESLATMA

- Agar Plitka rejimi yoqilgan bo'lsa, boshqa displeylar bilan bir xil tasvir sifatini ta'minlash uchun Energiyani aqlli tejash rejimi o'chirib qo'yiladi.
- Belgilash mumkin bo'lgan ustun va qatorlarning maksimal soni modeliga qarab farqlanishi mumkin.
- Bu funksiyadan foydalanish uchun mahsulot:
 - Boshqa mahsulotlar bilan birgalikda namoyish qilinayotgan bo'lishi kerak.
 - Taqsimlagich yoki DP ketma-ket zanjir orqali har bir displeyga ulash orqali boshqarilishi kerak.
 - Plitka rejimi: Gorizontol x Vertikal (Gorizontol = 1 dan 15 gacha, Vertikal = 1 dan 15 gacha)
 - 15 x 15 mavjud


Ikki tomonli ekranni sozlash

[Faqat ikki tomonli yassi OLED modellar uchun]

SETTINGS / ⚙️ →  → General (Umumiy) → Dual-View Screen Setting (Ikki tomonli ekranni o'rnatish)

- **Front Screen Name (Old ekran nomi):** Old ekranning nomini o'rnatadi.
- **Back Screen Name (Orqa ekran nomi):** Orqa ekranning nomini o'rnatadi.
- **Screen Swap (Ekranni almashtirish):** Ekranlarning old va orqa tomonlaridagi tasvirlarni almashtiradi.
- **Screen Mirroring (Ekranni akslantirish):** Joriy ekrandagi tasvirni qarama-qarshi ekranga nusxa ko'chiradi.
- **Screen Off (Ekranni o'chirish):** Old yoki orqa ekranni o'chiradi.
- **Clone All Settings (Barcha parametrlarni klonlash):** Old ekran uchun barcha parametrlarni orqa ekran uchun mos parametrlarga nusxa ko'chiradi. Bu opsiya faqatgina old ekran uchun yoqilgan.

Monitor parametrlarini qayta o'rnatish uchun

SETTINGS / ⚙️ →  → General (Umumiy) → Reset to Initial Settings (Dastlabki parametrlarni qayta o'rnatish)

Barcha monitor parametrlarini qayta o'rnatadi.

UHD Deep Color (UHD chuqur rang)-dan foydalanish

[Faqat Ultra HD modellar uchun]

SETTINGS / ⚙️ →  → General (Umumiy) → UHD Deep Color (UHD chuqur rang)

Agar HDMI yoki DP qurilmani Chuqur rang sozlanishi mumkin bo'lgan portlardan biriga ulasangiz, UHD chuqur rang parametrlar menyusida UHD chuqur rangni Yoqish (6G) yoki O'chirishdan (3G) birini tanlashingiz mumkin. Agar Chuqur rang parametri 3840 x 2160 @ 60 Gz ko'rsatkichda Yoqish qilib belgilanganda videokartada muvofiqlik muammosi yuz bersa, Chuqur rang parametrini O'chirishga o'rnatning.

- Kirish portiga qarab HDMI va DP xususiyatlari farq qilishi mumkin. Ulashdan oldin har bir qurilmaning texnik xususiyatlarini tekshiring.
- HDMI 1 va 2 kirish portlari yuqori aniqlikdagi 4K @ 60 Gz (4:4:4, 4:2:2) video xususiyatlari uchun eng yaxshi darajada mos keladi. Biroq tashqi qurilmalarning texnik xususiyatlariga qarab video yoki audio qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin. Agar bu hol yuz bersa, boshqa HDMI portiga ulang.

KO'NGIL OCHISH

Multimedia xususiyatlaridan foydalanish

USB/SD xotira qurilmalarini ulash

USB flesh xotirasi, SD xotira qurilmalari yoki tashqi qattiq disk kabi USB xotira qurilmasini displayga ulang va multimediya xususiyatlaridan foydalaning.



EHTIYOTBO'LING

- **Photo & Video (Fotosurat va video)** yoki **Music (Musiq)** o'ynatilayotganda monitorni o'chirmang, yoki USB saqlash qurilmasini sug'urib olmang.
- USB saqlash qurilmasida saqlangan fayllarni tez-tez zaxiraviy nusxalab turing, chunki fayllarning yo'qotilishi yoki shikastlanishi kafolat bilan qamrab olinmasligi mumkin.

USB/SD xotira qurilmalaridan foydalanish uchun maslahatlar

- Faqat USB saqlash qurilmasi tanib olinishi mumkin.
- USB qurilmasi USB xabi orqali ulangan bo'lganda u samarali ishlamaydi.
- Avtomatik tanib olish dasturidan foydalanuvchi USB saqlash qurilmasi tanib olinmasligi mumkin.
- O'z drayveridan foydalanuvchi USB saqlash qurilmasi tanib olinmasligi mumkin.
- USB saqlash qurilmasini tanib olish tezligi har bir qurilmaga bog'liq bo'lishi mumkin.
- Ulangan USB saqlash qurilmasi ishlayotgan vaqtda displeyni o'chirmang yoki rozetkadan uzvang. Agar USB saqlash qurilmasi to'satdan uzilsa, saqlangan fayllar yoki qurilmaning o'zi shikastlanishi mumkin.
- Iltimos, kompyuterda ishlash uchun moslashtirilgan USB saqlash qurilmasini ulamang. Qurilma mahsulotning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi yoki o'ynatilmassligi mumkin. Faqat oddiy musiqa, rasm yoki video fayllari mavjud bo'lgan USB saqlash qurilmasidan foydalaning.
- Windows tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydigan yordamchi dastur bilan formatlangan USB saqlash qurilmasi tanib olinmasligi mumkin.
- Tashqi quvvat ta'minotini talab qiluvchi USB saqlash qurilmasi (0,5 Adan ortiq) alohida quvvat ta'minotiga ulanishi kerak. Agar ulanmasa, qurilma tanib olinmasligi mumkin.
- Iltimos, USB saqlash qurilmasini qurilma ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan kabeldan foydalangan holda ulang.
- Ayrim USB saqlash qurilmalari qo'llab-quvvatlanmasligi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- USB saqlash qurilmalarining fayllarni tartiblash usuli Window XP-nikiga o'xshash va fayl nomi 100 tagacha ingliz belgisini taniy olishi mumkin.
- Muhim fayllarni muntazam ravishda zaxiraviy nusxalab turing, chunki USB saqlash qurilmasi shikastlanishi mumkin. Biz har qanday ma'lumotlarni yo'qotilishi uchun javobgarlikni o'z zimmamizga olmaymiz.
- Agar USB qattiq diskida tashqi quvvat manbai mavjud bo'lmasa, USB qurilmasi tanib olinmasligi mumkin. Qurilmaning tanib olinishini kafolatlash uchun tashqi quvvat manbaini ulang.
 - Tashqi quvvat manbai uchun quvvat adapteridan foydalaning. Biz tashqi quvvat manbai uchun USB kabeliga kafolat bermaymiz.
- Agar USB saqlash qurilmasi bir nechta qismlarga ega bo'lsa yoki siz USB multi-kartrideridan foydalansangiz, siz 4 tagacha qismdan yoki USB saqlash qurilmalaridan foydalana olasiz.
- Agar USB saqlash qurilmasi USB multi-kartrideriga ulangan bo'lsa, uning hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlanmasligi mumkin.
- Agar USB saqlash qurilmasi to'g'ri ishlamasa, uni uzib qayta ulang.
- Aniqlash tezligi qurilmaga bog'liq ravishda farq qiladi.
- Agar USB saqlash qurilmasi Kutish rejimida ulansa, displey yonganda ma'lum qattiq disk avtomatik ravishda yuklanishi mumkin.
- Tavsiya qilingan sig'im USB tashqi qattiq disklari uchun 1 TB yoki undan kamroq va USB saqlash qurilmalari uchun 32 GB yoki undan kamroq.
- Tavsiya qilingan sig'imga qaraganda kattaroq sig'imga ega bo'lgan har qanday qurilma to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Agar "Energy Saving" (Energiyani tejash) funktsiyaga ega bo'lgan USB tashqi qattiq diski ishlamasa, qattiq diskni o'chirib yoqishni sinab ko'ring.
- USB 2.0 dan past bo'lgan USB saqlash qurilmalari ham qo'llab-quvvatlanadi, biroq ular Videolarda to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Bitta papka ostida eng ko'pi bilan 999 ta tag papkalar yoki fayllar tanib olinishi mumkin.
- SD kartalar uchun SDHC turi qo'llab-quvvatlanadi. SDXC kartasidan foydalanish uchun uni avval NTFS fayl tizimiga formatlang.
- SD kartalar va USB xotira qurilmalari uchun exFAT fayl tizimi qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Ayrim modellar SD kartalarni qo'llab-quvvatlamaydi.

Photo & Video (Fotosurat va video)

- OLED modellarida fotosurat xususiyati qo'llab-quvvatlanmaydi.

Qo'llab-quvvatlanadigan fotosurat va video fayllari

Qo'llab-quvvatlanadigan tashqi subtitr formati

- *.smi, *.srt, *.sub (MicroDVD, SubViewer 1.0/2.0), *.ass, *.ssa, *.txt (TMPlayer), *.psb (PowerDivX), *.dcs (DLP Cinema)

! ESLATMA

- Ma'lum modellarda subtitrlar qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Ichki qurilgan subtitrlar qo'llab-quvvatlanmaydi.

Qo'llab-quvvatlanadigan video kodeklar

Kengaytirma	Kodek	
.asf .wmv	Video	VC-1 Kengaytirilgan profil (WMVA-dan tashqari), VC-1 Oddiy va Asosiy profillar
	Audio	WMA standarti (WMA v1 / WMA Speech-dan tashqari)
.avi	Video	Xvid (3 ta asosiy nuqtali GMC-dan tashqari), H.264/AVC, Motion Jpeg, MPEG-4
	Audio	MPEG-1 Layer I, II, MPEG-1 Layer III (MP3), Dolby Digital, LPCM, ADPCM, DTS
.mp4 .m4v .mov	Video	H.264/AVC, MPEG-4, HEVC
	Audio	Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, MPEG-1 Layer III (MP3)
.3gp .3g2	Video	H.264/AVC, MPEG-4
	Audio	AAC, AMR-NB, AMR-WB
.mkv	Video	MPEG-2, MPEG-4, H.264/AVC, VP8, VP9, HEVC
	Audio	Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, PCM, DTS, MPEG-1 Layer I, II, MPEG-1 Layer III (MP3)
.ts .trp .tp .mts	Video	H.264/AVC, MPEG-2, HEVC
	Audio	MPEG-1 Layer I, II, MPEG-1 Layer III (MP3), Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, PCM
.mpg .mpeg .dat	Video	MPEG-1, MPEG-2
	Audio	MPEG-1 Layer I, II, MPEG-1 Layer III (MP3)
.vob	Video	MPEG-1, MPEG-2
	Audio	Dolby Digital, MPEG-1 Layer I, II, DVD-LPCM

! ESLATMA

- 3D videolar qo'llab-quvvatlanmaydi.

Ma'lumotlar o'tkazishning eng yuqori tezligi

- Full HD Video
H.264 1920 x 1080@60P BP/MP/HP@L4.2 40 Mb/s
HEVC 1920 x 1080@60P MP@L4.1, Main10 Profile@L4.1 40 Mb/s
- Ultra HD [Faqat Ultra HD modellariga tegishli]
H.264 1920 x 1080@60P 4096 x 2160@30P BP/MP/HP@L5.1 50 Mb/s
HEVC 4096 x 2160@60P MP@L5.1, Main10 Profile@L5.1 50 Mb/s

Qo'llab-quvvatlanuvchi fotosurat fayli

Fayl formati	Format	Element
jpeg, jpg, jpe	JPEG	<ul style="list-style-type: none"> • Minimum : 64 x 64 • Maksimum <ul style="list-style-type: none"> - Normal turi: 15360 (K) x 8640 (B) - Progressiv turi: 1920 (K) x 1440 (B)
.png	PNG	<ul style="list-style-type: none"> • Minimum : 64 x 64 • Maksimum: 5760 (K) x 5760 (B)
.bmp	BMP	<ul style="list-style-type: none"> • Minimum : 64 x 64 • Maksimum: 1920 (K) x 1080 (B)

Fotosuratlar va videolarni ko'rish

HOME / ↑ → 

- 1 Kerakli xotira qurilmasini tanlang.
- 2 O'zingiz xohlagan fotosurat yoki videoni tanlang va ko'ring.

Video fayllarini o'ynatish uchun maslahatlar

- Ayrim foydalanuvchi tomonidan yaratilgan subtitrlar to'g'ri o'ynatilmaligi mumkin.
- Subtitrlardagi ayrim maxsus belgilar ko'rsatilmaydi.
- Subtitrlarda HTML teglari qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Qo'llab-quvvatlanmaydigan tillardagi subtitrlardan foydalanib bo'lmaydi.
- Audio til o'zgartirilganda ekran vaqtinchalik uzulishlardan (tasvirning to'xtatilishi, tezroq o'ynatish va boshqalar) zararlanishi mumkin.
- Shikastlangan video fayli to'g'ri o'ynatilmaligi yoki ayrim pleyer funksiyalaridan foydalanib bo'lmaligi mumkin.
- Ayrim kodlovchilar tomonidan yaratilgan video fayllarini to'g'ri o'ynatib bo'lmaligi mumkin.
- Agar yoqilgan faylda video va audio tuzilmalari o'zaro aralashgan bo'lsa, video yoki audio chiqariladi.
- Ko'rsatilgan turdagi va formatdagidan boshqa video fayllari to'g'ri o'ynatilmaligi mumkin.
- O'ynatish mumkin bo'lgan faylning maksimal ma'lumotlarni uzatish tezligi 20 Mbit/s. (Motion JPEG: faqat 10 Mbit/s)
- Biz H.264/AVC da 4.1 yoki undan balandroq daraja bilan kodlangan profillarning tekis o'ynatilishiga kafolat bermaymiz.
- Fayl hajmi 30 GBdan katta bo'lgan video fayllar qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Video va tagsarlavha fayllari bitta papkaga joylashtirilgan bo'lishi kerak. Tagsarlavhalar to'g'ri namoyish qilinishi uchun video va tagsarlavha fayllarining bir xil nomlanganligiga ishonch hosil qiling.
- Yuqori tezlikdagi ulanishni qo'llab-quvvatlamaydigan USB ulanishi orqali videoni o'ynatish to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Ishlab chiqaruvchi va modelga bog'liq ravishda Network Attached Storage (NAS) qurilmasidagi tagsarlavhalar qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- Global Motion Compensation (GMC) va Quarterpel Motion Estimation (Qpel) tomonidan kodlangan fayllarni oqimlashtirish qo'llab-quvvatlanmaydi.
- [Faqat Ultra HD modellar uchun] Ultra HD tasvir: 3840 X 2160
LG Electronics tomonidan rasman taqdim etilgan tarkibdan boshqa ayrim HEVC-kodlangan Ultra HD videolarni o'ynatib bo'lmaligi mumkin. Ayrim kodeklardan dasturiy ta'minot yangilanganidan keyin foydalanish mumkin.

Kengaytirma	Kodek	
.mkv	Video	H.264/AVC, HEVC
.mp4	Audio	Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, HE-AAC
.ts		

- O'ynatish mumkin bo'lgan fayl hajmlari kodlash sharoitiga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.
- AAC Main profil qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Ayrim kodlovchilar tomonidan yaratilgan video fayllar o'ynatilmaligi mumkin.

Rejalangan holda o'ynatish

- Faqat ma'lum modellarga qo'llaniladi.


Siz o'zingiz tanlagan tarkibni ma'lum vaqtda o'ynatishni rejalashtirishingiz mumkin. (Rejalangan holda o'ynatishdan tashqi kirishlar bilan birgalikda foydalanish mumkin.)

HOME / ↑ → 

- 1 Kerakli xotira qurilmasini tanlang.
- 2 O'zingiz rejalamoqchi bo'lgan fayl mavjud bo'lgan papkani kiriting.
- 3 Yuqori o'ng tomondagi **NEW SCHEDULED PLAYING (YANGI REJALANGAN O'YNATISH)** tugmasini cherting.
- 4 O'zingiz o'ynatishni rejalashtirmoqchi bo'lgan tarkibni tanlang.
- 5 Yangi reja yaratish uchun reja tafsilotlarini kiriting.
- 6 Tanlangan tarkibingizning bir vaqtda o'ynatilishini kuzatib turing.


Eksport

- Faqat ma'lum modellarga qo'llaniladi.

HOME / ↑ → 

- 1 Kerakli xotira qurilmasini tanlang.
- 2 O'zingiz eksport qilmoqchi bo'lgan fayl mavjud bo'lgan papkani kiriting.
- 3 Yuqori o'ng tomondagi **EXPORT (EKSPORT QILISH)** tugmasini cherting.
- 4 O'zingiz eksport qilmoqchi bo'lgan faylni tanlang.
- 5 Yuqori o'ng tomondagi **COPY (NUSXALASH) / MOVE (KO'CHIRISH)** tugmasini cherting va faylni eksport qilmoqchi bo'lgan qurilmani tanlang.
- 6 Faylning tanlangan qurilmaga nusxalanganligi yoki ko'chirilganligini tekshiring.

O'chirish

HOME / ↑ → 

- 1 Kerakli xotira qurilmasini tanlang.
- 2 O'zingiz o'chirmoqchi bo'lgan faylga bo'lgan yo'lni kiriting.
- 3 O'chirish tugmasini cherting.
- 4 O'zingiz o'chirmoqchi bo'lgan faylni tanlang.
- 5 Yuqori o'ng burchakdagi O'chirish tugmasini cherting.
- 6 Ro'yxatdan faylning o'chirilganligini tekshiring.

Musiq

Qo'llab-quvvatlanadigan musiq fayllari

Fayl formati	Element	Ma'lumot
.mp3	Ma'lumotlarni o'tkazish tezligi	32 Kb/sdan 320 Kb/sgacha
	Tanlanma chastotasi	16 kGzdan 48 kGzgacha
	Qo'llab-quvvatlash	MPEG1, MPEG2
	Kanallar	Mono, Stereo
.wav	Ma'lumotlarni o'tkazish tezligi	-
	Tanlanma chastotasi	8 kGzdan 48 kGzgacha
	Qo'llab-quvvatlash	PCM
	Kanallar	Mono, Stereo
.ogg	Ma'lumotlarni o'tkazish tezligi	64 Kb/sdan 320 Kb/sgacha
	Tanlanma chastotasi	8 kGzdan 48 kGzgacha
	Qo'llab-quvvatlash	Vorbis
	Kanallar	Mono, Stereo
.wma	Ma'lumotlarni o'tkazish tezligi	128 Kb/sdan 320 Kb/sgacha
	Tanlanma chastotasi	8 kGzdan 48 kGzgacha
	Qo'llab-quvvatlash	WMA
	Kanallar	6 tagacha kanal

Musiq o'ynatish

HOME / ↑ → 

- 1 Kerakli xotira qurilmasini tanlang. Siz **My playlist (Ijro ro'yxatim)**-da barcha saqlash qurilmalari bo'ylab o'ynatmoqchi bo'lgan qo'shiqlarni tanlashingiz mumkin.
- 2 Kerakli musiqiy tarkibni tanlang va zavqlaning.

O'chirish

HOME / ↑ → 

- 1 Kerakli xotira qurilmasini tanlang.
- 2 O'zingiz o'chirmoqchi bo'lgan faylga bo'lgan yo'lni kiriting.
- 3 O'chirish tugmasini cherting.
- 4 O'zingiz o'chirmoqchi bo'lgan faylni tanlang.
- 5 Yuqori o'ng burchakdagi O'chirish tugmasini cherting.
- 6 Ro'yxatdan faylning o'chirilganligini tekshiring.

SuperSign tarkiblari

SuperSign Tahrirlagichidagi Eksport opsiyasidan foydalangan holda saqlangan fayllarni o'ynatadi.

Export (Eksport) opsiyasidan foydalanib saqlangan fayllarni o'ynatish uchun

HOME / ↑ → 

Faqat SuperSign Manager (SuperSign menejeri) tomonidan taqsimlangan tarkiblar namoyish qilinadi va tanlash mumkin. Agar USB/SD xotira qurilmasi ulangan bo'lsa, USB/SD qurilmasidagi tasvir qo'shimcha ravishda chiqariladi.

ESLATMA

- Agar papka "Normal" deb nomlangan yoki USB/SD kartada AutoPlay mavjud bo'lsa hamda unda o'ynatiluvchi fayllar bo'lsa, USB/SD karta ulanganda fayllar avtomatik ravishda o'ynatiladi.
- OLED mahsulot turlari bitta video yoki bitta flesh fayllaridan boshqa tarkib turlarini o'ynatmaydi. SuperSign tahrirlagichi orqali hosil qilingan tarkib ham o'ynatilmaydi.

Axborot

Signage monitorining asosiy ma'lumotlarini tekshirish

HOME / ↑ → 

Signage monitorida asosiy ma'lumotlarni ko'rishingiz mumkin.

Shuningdek, siz **Smart Energy Saving (Smart Quvvat tejash)** rejimiga o'zgartirishingiz yoki **Fail Over** parametrlarini sozlashingiz mumkin. (**Smart Energy Saving (Smart Quvvat tejash)** rejimiga faqat **Energy Saving (Quvvat tejash)** rejimi yoqilgan bo'lganda o'zgartirish mumkin. OLED modellarida Energiyani aqlli tejash rejimi mavjud emas.)




Local Contents Scheduler (Mahalliy tarkiblar rejalovchisi)

- Faqat ma'lum modellarga qo'llaniladi.
- Suratlarini navbat bilan ko'rsatishda tavsiiya etilgan sig'im 4096 x 2160 yoki undan pastroqdir.

Rejalangan o'ynatishni o'rnatish

Siz **Local Contents Scheduler (Mahalliy tarkiblar rejalovchisi)** va **Photo & Video (Fotosurat va video)** ilovasidan foydalanib, rejalangan o'ynatishni yaratishingiz mumkin.

Fotosurat va video bilan rejalangan o'ynatish

- 1-usul: Fotosurat va video ilovasidagi rejalangan o'ynatish bo'limiga qarang.
